

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI

RASULOVA RISOLA ZOKIRJON QIZINING

**«KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISHGA
BO'LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI»
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

KATTA O'QIT: Z.QORABOYEVA

Namangan – 2019

REJA:

KIRISH

**I-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING
BILISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

- 1.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqishlarning namoyon bo‘lishi.
- 1.2. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirishning o‘rni.
- 1.3. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari.

**II-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING
BILISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI**

- 2.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish shakllari, metodlari va vositalari.
- 2.2. “Bolajon” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.....
- 2.3. Katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlari uchun tanlangan metodlar samaradorligini aniqlash.

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim o'ziga xos o'rnini va mavqega ega bo'lib, bolalarning kelgusi hayoti va faoliyatiga ta'mal toshi qo'yi poydevor vazifasini o'taydi, chunki xalqimizning kelajagi O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan yosh avlodga, uning saviyasi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangandir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishida o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta'lim yoshida o'ziga xos e'tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan darak beradi.

Qadimdan o'zbek xalqi ilm olishni farz deb hisoblagan. Buyuk mutafakkirlar hayoti va faoliyati bunga yorqin misoldir. Tarixiy xotiralar, qadimiy ma'naviy-madaniy yodgorliklar bilan chuqur tanishib borar ekanmiz, milliy qiyofamiz, qadriyatlarimiz ming yillar mobaynida turli chig'iriqlardan o'tganligiga qaramay bugungi kungacha o'zida o'zbek xalqining ruhiga, tafakkur tarziga xos jihatlarni asrab kelganiga guvoh bo'lamiz. Millatimizga xos bo'lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo'shqinlik, qat'iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta'minlovchi sifatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida ko'rsatib berilgan bo'lib, unda "...maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish"¹ zarurligi ta'kidlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2016 yil 29 dekabr) qabul qilindi. Qarorga muvofiq O'zbekistonda "... maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash; bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash; ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish; bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish"² yo'nalishlari bo'yicha puxta rejalar ishlab chiqildi va amalga oshirishga kirishildi.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda qishloq joylarida maktabgacha ta'lim muassasalari sonini keskin oshirish zarurati ko'rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog'chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan.

Albatta, bu ehtiyoj bejiz emas. Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил, № -сон.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017-2021-йилларда мактабгacha таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. "Ўзбекистон овози" газетаси, 2017 й. 1 январ, № 1-сон (32.216).

bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda maktabgacha ta'limni jahon talablari darajasiga ko'tarish davlat ahamiyatiga molik masala darajasida hal etilmoqda.

Eng zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida bolalarga puxta bilimlar berish va ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan qayta rekonstruktsiya qilish, texnologiyalardan foydalanish uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash ishlari jadal olib borilmoqda.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim tizimi markazida barkamol shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g'oyasi muhim o'rin tutadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga bo'lgan munosabat va uning bilishga oid qiziqishlarni shakllantirish hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarining bilish jarayonidagi faolliklarini oshirish uchun yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali bolalar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- bolalarni muvaffaqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
- mustaqil faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Ta'lim tizimida yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondoshishni talab etadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali bolaga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- bolalarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatining xususiyatlarini aniqlash;
- bolalar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
- shaxs rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

2019 yil 8 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi. Konsepsiyada: «maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, ...ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim»³ ligi alohida ta'kidlangan.

Ayniqsa, ta'lim tizimining yetakchi bo'g'inlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida o'qitilishining sifati va samaradorligiga katta ahamiyat berish davr talabiga aylandi. Maktabgachcha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini shakllantirish tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Maktabgachcha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liqdir. Asosiy omillardan biri bu tarbiyachining mashg'ulotlarni bolalar uchun qiziqarli qilib tashkil eta olishidir. Ma'lumki, qiziqish barcha psixik jarayon va funktsiyalarning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar bola hech qanday aqliy

³ Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312- сон Қарорига 1-илова.

qiziqishlar bilan yo'naltirilmas ekan, uning tabiiy yosh qiziqishlari qaysi yo'llarga ketishini aytish qiyin.

Shu narsani ko'rsatib o'tish ahamiyatliki, motiv va qiziqishlar o'quv faoliyati shakllanganlik darajasiga, o'quv faoliyatining bola uchun ahamiyatlilik darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda motivlarning psixologik jihatlariga nazar tashlaymiz.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va etarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (sub'ektning) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, **tashqi** va **ichki** nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, havf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, xukmron (etakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallash (o'zlashtirishda qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy maqsadi o'qish emas, yoki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga iindividual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual

maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi insonning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning etilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovlar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazardan ushbu jarayonga yondashilganda to'laqonli va optimal (oqilona) deyiladi.

Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otishni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Aniq narsalar, hodisalar va xatti-harakatlar insonning faolligi muayyan manbalar bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lsa, uyg'unlashib borsa faoliyat motivlari darajasiga o'sib o'tadi.

Muammoning ilmiy o'rganilganligi. Bolalarning bilishga qiziqishlarini shakllantirish masalasining fiziologik asoslari (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, S.L. Rubinshteyn, Yu.A. Samarinar); psixologik asoslari (A.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, P.YA. Galperin, D.B. Elkoninlar); pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi); o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi); o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi); o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.Shedrikov texnologiyasi); o'qitishni dasturlash

texnologiyasi (B.P. Bepalko)lar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Bu tadqiqotlarning barchasi bolalarning bilish faoliyatlarini takomillashtirish maqsadini ko'zlagandir.

Yuqoridagi tadqiqotlarning barchasi turli davrlar ehtiyoji va talablari nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, o'ziga xos ahamiyatga ega. Biroq, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish masalasi bugungi davr talablari asosida qayta o'rganib chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun bu bitiruv malakaviy ishi mavzusini **“Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish texnologiyasi”** deya tanlashimizga asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash va uning samaradorligini isbotlash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish texnologiyalarining imkoniyatlarini aniqlash;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari (pedagogik tizimi)ni ishlab chiqish,

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob`yekti: katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Malakaviy ish kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

**I-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING
BILISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqishlarning namoyon bo'lishi.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarning aql idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, o'quvliligi, esda olib qolishi, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisolash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi, o'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldida masuliyatli his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Quyida mazkur yoshdagi bolalardagi sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarining xususiyatlari va rivojlanishi to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Qiziqish – shaxsning muayyan narsa yoki hodisaga ega bo'lishga, bilishga faol va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati yoki faoliyat motivi bo'lib, u har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qiziqishlar shaxsni o'zida bilim olish va anglab etish borasida hosil bo'lgan ishtiyoqni qondirish yo'llarini va usullarini izlashga majbur etadi, ya'ni qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. SHuning uchun darslarda bolalarga bilim berish usullarining qiziqarli bo'lishini ta'minlash zarur. Bu bolalardagi mavjud qiziqishlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda ularni faol ijodiy faoliyatga undovchi pedagogik texnologiya katta ahamiyatga ega. Bunga bolalarga o'quv materiallaridan ularning kuchi etadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo'li bilan erishish mumkin.

Qobiliyat – shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida

ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni, boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni egallash jarayoni turli teng sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, oson va mustahkam amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Pedagogik texnologiyalar bolalarning qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita vazifasini bajarishi lozim.

Ta'lim samaradorligi bola faolligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bolaning ta'lim jarayonidagi faoliyatini faollashtirish bolaning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishi bilan chambarchas bog'langandir. Bilimlarni ongli o'zlashtirish o'rganilayotgan materialga tushunib ijodiy yondashish demakdir. Pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayoni bolaning faolligini oshirish va o'zlashtirishga ijodiy yondoshishni ta'minlaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar (5-7 yosh) o'z idroklarning aniqligi, ravonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrlaridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sichikovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatig birinchi signal tizimi uzunligi bilan izohlash mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi bola har qanday obyekt, subekt, va voqealikdagi yangilikni yaqqol iqrok qilishga intiladi, uni atrof muhitning sirli olami, sehri, jilolanishi, jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining salbiy xususiyati obektlarni bir-biridan farqlashdagi zaiflikdir. Ular ko'pincha o'rganiladigan materialni noaniq, xatto, noto'g'ri idrok qiladilar, buning oqibatida aynan o'xshash xarflar, so'zlar, narsalar tasviri, shakli, fazoviy jolashuvining farqini to'la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, "q" bilan "k", o'qish bilan uqish so'zlarini "aylana" bilan doira shakllarini, "kesma" bilan "to'g'ri chiziq" alomatlarini bir-biridan farqlaydilar. Bazan esa ular kattalarning idrok ko'lami qamrab olmaydigan narsalarni payqaydilar.

Bolalar tartibli maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ular ta'lim jarayonida ko'pincha xatoga yo'l qo'yadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib, tasodifiy belgilarga etibor beradilar. Psixolog N. F. Dobrinin ishlangan olmaxonning rasmini ko'rsatgan, so'ng uning chizishni taklif etgan. Surat olib qo'yilgandan keyin bolalarda olmaxonni mo'ylovi, ko'zi mo'ynasini rangi to'g'risida qator savollar paydo bo'lgan. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati juda cheklangan.

Mazkur yoshdagi bolalarni idroki o'zining xatti-harakati, o'yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qandaydir narsani idrok etish o'sha narsa bilan mashg'ul bo'lishni anglatib keladi. Bola o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi intilishi va turmush faoliyatiga mos, shuningdek, tarbiyachi tavsiya etgan. Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokning yana bir xususiyati xilma-xil yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir vaxis tuyg'uga boyligidir. Shuning uchun ular, avvalo yorqin his-tuyg'u uyg'otadigan narsa va hodisalarning idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar geometrik shakllarga ko'ra jonli va "jozibador" tasvirlar yorqin his tuyg'u tarzida aks ettiradi. Ko'p fiziolog va psixologlarning fikricha yorqin, rangli tasvirlarni idrok qilish ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni vaqtincha to'xtatib qo'yadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun bolalarga mo'ljallangan kitoblarda juda ko'p suratlar bilan bezatilish zarur.

Ta'lim jarayonida katta maktabgacha yoshdagi bolaning idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan persektiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Bola tarbiyachining rahbarligida shaxsiy idrokni tashkil etish, o'z oldiga vazifa qo'yish, idrok mahsulini nazorat qilish va xokozolarni o'rgana boradi. Bola ta'limning dastlabgi bosqichida oqilona idrok etish uchun keyinchalik esa o'sha narsani idrok qilish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo'lsa harakat qilish idrokni sharti vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq persektiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi natijada bolada kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Tayyorlov guruhida so'z biror narsani atash bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik u o'rganilayotgan obektning umumiy manosini anglata boshlaydi.

Idrokning takomillashuvi tarbiyachichining bevosita rahborligida bevosita amalga oshadi: u bolalarga persektiv faoliyatni omilkorlik bilan tashkil etishni, obektlarni muhim va nomuhim belgilarni ajratishni, diqqatni to'plash va taqsimlashni, materiallarni tartibli va rejali tahlil qilishni o'rgatadi. Buning uchun bolalarni sayrga olib chiqadi, ko'rsatmali qurallardan foydalaniladi, jismoniy va aqliy mehnat jarayonlarini taqqoslash va kuzatish malakalarini shakllantiradi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositalarning biri bolalarda narsa va hodisalarni o'hshash va farqli alomatlarini ajratish o'quvini tarkib topdirishdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarining persektiv faoliyatida fazo vaqt va harakatning idrok qilishning o'ziga xos hususiyati bor.

Bolalarda hayot tajribasini yetishmasligi, bilim saviyasini qashshoqligi tasavvur obrazlarining zaifligi tufayli idrokning mazkur shakllari juda cheklangan bo'ladi. Ular kundalik turmushda qo'llaniladigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklanishi sababli ilmiy fazoviy atamalarni, masalan tog'larni balandligi, fazo bilan yer o'rtasidagi masofa, dengiz va ko'llarni hajmi va boshqalarni idrok etishga qiynaladi. Katta fazoviy tushunchalarni anglamasliklari sababli ularda "yulduzlarni oralig'i necha kilometr?" "Osmonga sharda uchib borsa bo'ladimi, samalyotda-chi?" kabi savollar tug'uladi. Bolalarni vaqtni idrok qilishi ham tor ma'nodagi tushunchalardan iborat bo'ladi va ular "asr" eramizdan avvalgi davr kabi atamalarni nimaligini tushunmaydilar.

Harakat deganda bola ko'pincha jismoniy va mehanik harakatni nazarda tutadi, lekin uning bijlogik, ijtimoiy, kimyoviy harakatlarni bilishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, bola hatto samolyot, qush va raketa o'qning tezligini ham notog'ri idrok qiladi. Masalan tabiat bilan tanishtirish qirilib bitgan

kaltakesaklar haqidagi malumotni eshitgan bo'lsa uyga kelib buvisidan uni ko'rgan yoki ko'rmaganligini so'raydi.

Ta'lim jarayonida va kattalarni yordami bilan turmush tajribasining ortishi tufayli bolalarda fazo va vaqt harakatni idrok qilish ko'lami kengayadi, ular vujudga kelgan savollarga javob topa boradilar. Bundan tashqari ularning nazariy bilimlari amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham boyib boradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va favqulotda vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ihtiyori diqqatni kuchsizligi va beqarorligi. Shu bilan birga bolalarning ihtiyoriy diqqat o'qish motivlari uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq mativlarga ajratiladi. Maktab o'quvchilarining bilim olish mativlari uzoqni ko'zlagan mativga kirsam, maktabgacha yoshdagi bolalarining mativlari voqelikka va realikka bog'liq mativlardir.

Tajribadan ma'lumki, bolalarda ihtiyorsiz diqqat durusgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ihtiyorsiz diqqatni o'sishi uchun muhim shart sharoitlar mavjuddir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'quv materiallarining yaqqoligi va yorqinligi jozibodorligi bolaga beihitoy ongli o'qishlari bolada beihitoy xis-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkoniyatini yaratadi. O'quv materiallarini turli-tumanligi ihtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy tasir etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stretotip paydo bo'lishi ham mumkin. Suniy to'siqlar halal beruvchi alomatlardan qutulish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi, bola tashqi belgilarga etibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlashadi.

Ma'lumki, ihtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida bolalarni qiziqishi bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki ular maroqli, quvonchli ahborot va matnlar tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik, yani tashqi qo'zg'atuvchilar tasiriga beriluvchi diqqat ularning psihikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K D Ushenskiy, bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas, balki uni qiziqtirmagan narsa bilan ham shug'ulanishga o'rgating, bola o'z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo'lsin deb uqtirgan edi.

Ta'lim jarayoni katta maktabgacha yoshdagi bolalar bolalarni ihtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli to'planuvchan, taqsimlanuvchan, faol ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar yechish, mashqlarni bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berishda ihtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Shuningdek, uning eng zarur hususiyatlari takomollashadi, bu esa ongli ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarni diqqati o'qish faoliyatiga doir maqsadga muvofiq ijtimoiy mativlar, hamda ular paydo bo'layotgan yangi hislatlar bilan bir paytda rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar ihtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa ularni taqsimlash tashqi qo'zg'atuvchilarning qarshiligini yengib ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining eng muhim xususiyatlaridan biri-so'z mantiq hotirasi va manosiga tushunib eslab qolish salmog'ini ortishidir. Bola o'z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, birinchi chaqiruv tizimi ikkinchi chaqiruv tizimidan birmuncha ustunligi tufayli bolalarda mantiqiy hotiradan ko'rsatmali-harakatli hotira muhimroq ro'l o'ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol malumotlar, axborotlar, voqea va xodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar

va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf bolalari ta'limiy materiallarni ichki bog'lanishlariga ahamiyat bermay, ma'nosiga tushunmay eslab qoladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o'zlashtiradilar. Buning sabablari:

- 1) ularning mehanik hotirasi boshqa hotiraga qaraganda durusroq rivojlangani ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;
- 2) bolalar tarbiyachi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber "degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;
- 3) ularning nutq boyligi yetishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma so'z qaytarishning osonlashtiradi;
- 4) bolalar matni to'g'ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. A.A.Smirnov eslab qolishning to'g'ri usuli sifatida matndagi manodosh so'zlarni guruhlarga ajratish, tayanch nuqtani toppish, so'zlab berish uchun reja tuzish va o'tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining manosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalilarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali bolalarda mantiqiy hotira takomillashadi. Ularni A.A.Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish tarbiyachining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikning vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o'stirish mumkin emas. shuning uchun bolalarga izohli o'qish, masalani shartini sharxlash, muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Ihtiyoriy eslab qolish va esga tushurishning maxsuldorligini ko'p jihatdan bolalar aqliy faoligining darajasiga bog'liq. Aqliy faoliyat darajasi ularni eslab qolishni tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy bog'liqdir. Mnemik usullarga tariff yoki qoidaning so'zma so'z eslab qolish o'z so'zi bilan aytib bersa bo'ladigan materialni mohiyatini eslab qolish, birlamchi va ikkilamchi

qismlarga ajratish qismlarga ajratish, raqamlarni bir joyga to'plash, eng zarur tushunchalarga alohida etibor berish kiradi. Eslab qolish esda saqlash, esga tushurishning samaradorligini maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi. L.V Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning rol o'rganilgan, uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yangi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixologiya faniga "uzoq vaqt eslab qolish", "hamma vaqt esda saqlash" iboralari kiritilgan. Umuman kattalarning, xususan tarbiyachilarning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni, tarkib toptirish, ularda eslab qolishning usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi bolalarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat (D.K. Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin bolalar materialni eslashni hush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mahtiqiy xotira o'sishining garovidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning hayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, sur'atlar, chizmalar, shartli belgilar, noma'lum narsaning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib bolalarning hayoli paydo bo'ladi. Tanish obraz yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan

materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi.

O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o'zaro birlashgan holatga keltirish, yangi obrazlar, ijodiy izlanishning eng muhim omli- ijodiy hayolni takomillashtiradi. Ijodiy hayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun bola hayolida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko'lami tobora kengayadi.

Bu esa bolada hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada uning hayoli taassurot qurshovidan bo'shaydi, yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

1.2. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishning o'rni.

O'quv faoliyati - katta maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bo'lib, bu faoliyat quyidagi asosiy belgilari bilan xarakterlanadi:

- birinchidan, bu shunday faoliyatki, uning asosida boshqa yangi faoliyatlar yuzaga keladi;
- ikkinchidan, uning sasosida shaxsiy psixik jarayonlar shakllanadi va rivojlanadi;
- uchinchidan, bola shaxsida bo'ladigan juda ko'p o'zgarishlar ana shu faoliyatga bog'liqdir.

O'quv faoliyati inson ta'lim olishining turli davrlarida MTM, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlari va boshqa o'quv muassasalarida hatto ulardagi o'qish tuguganidan so'ng ham davom etadi, chunki ta'lim insonning butun hayoti davomida uzlkusizlikdan iboratdir. Shuning uchun ham birinchidan, o'quv faoliyatiga va ikkinchidan bolani har tomonlama rivojlantirish, ularda bilishga nisbatan qizivishni uyg'otish uchun o'quv faoliyatni to'g'ri tashkil qilib boshqarishga aniqlik kiritib, pedagogik-psixologik jihatdan ko'rib chiqish lozim.

Rus psixologi A. N. Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjud ekanligini ta'riflab, bola ongi aynan faoliyati (o'yin, o'qish va mehnat) amalga oshirish jarayonida o'sadi, degan g'oyani ilgari suradi.

D. B. Elkonin o'quv faoliyatni nazariy jihatdan talqin qilib bergan birinchi psixolog olimlardan hisoblanib, u o'quv faoliyati ni quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib bergan:

- o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir (unda insoniyat to'plagan fan va madaniyatning barcha boyliklari o'rganiladi va o'zlashtiriladi);
- u o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiydir (u jamiyat uchun ahamiyatli bo'lib, jamiyat tomonidan baholanadi);
- shuningdek, o'quv faoliyati o'zini namoyon qilish shakli jihatidan ham ijtimoiydir (u jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlarga moslashtiriladi).

O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo bolaning o'zida o'zgarish yuzaga keladi. Uning mahsuloti esa turli motivlar bilan qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bolaning qiziqishlari va bevosita faoliyat mazmuniga

bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda bola shaxsining o'sishi yoki rivojlanishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'lim tarbiyachi va bola hamkorligidagi o'quv faoliyati, tarbiyachini bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga o'rgatish jarayonidir. O'qish va o'rganish ham o'quv faoliyatiga tegishli tushunchalardan bo'lib, unda asosiy e'tibor bolaga qaratiladi. Bunda kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun bola tanlagan o'quv harakatlari asosiy hisoblanadi.

O'quv faoliyati tuzilishining birinchi elementi - o'quv-bilish motivlari, ya'ni shaxsiy rivojlanish motivlari hisoblanadi.

O'quv faoliyatining ikkinchi ahamiyatliroq bo'lgan elementi bu - o'quv topshiriqlaridir. Topshiriqlar bu bola darsda yoki uyda bajaradigan topshiriqlargina bo'lib qolmay, balki bola oldiga muammo shaklida qo'yilgan harakatning umumlashtirilgan yo'llarini egallash bo'yicha qo'yilgan aniq maqsaddir.

O'quv faoliyati strukturasining uchinchi elementi bu - o'quv harakatlaridir. Bu harakatlar quyidagilardan iborat:

1. Qo'yilgan o'quv topshiriqlaridan muammoni yoki o'quv maqsadlarini aniqlashi.
2. O'rganilayotgan o'quv materiallarini tahlil qilish asosida muammoni echishning umumiy yo'llarini aniqlash bo'yicha harakati.
3. Harakatning umumiy yo'llari va umuiy munosabatni modellashtirish bo'yicha harakati.
4. Harakatning umuiy yo'llari va umumiy munosabatlarining ayrim ko'rinishlari bilan boyitish va aniqlik kiritish harakati.

O'quv faoliyatining to'rtinchi elementi bu tarbiyachining nazorati, shuningdek, tarbiyachining nazoratidan bolaning o'z-o'zini nazorat qilishga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan nazorat harakatlaridir.

Beshinchi element bu - tarbiyachining baholashi, shuningdek, o'z-o'zini baholashga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir.

D. B. Elkoninning yozishicha, o'quv faoliyatning shakllantirilishi bu faoliyat ayrim elementlari bajarilishini asta-sekinlik bilan bolaning o'ziga tarbiyachining ishtirokisiz mustaqil bajarishi uchun o'tkazilishidir.

Shaxs sifatlarining tuzilishi maktabgacha sinf tarbiyachisi uchun bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda muhimdir. SHaxs sifatlari irsiy – biologik va hayotida egallagan – ijtimoiy - tashkil etuvchilaridan iborat bo'ladi. Ularning ijobatlari bo'yicha shaxs tuzilishida to'rtta daraja – tizimlarga ajratadilar. Ular quyidagi shartli nomlarga ega:

1. Irsiyat bilan bog'langan sifatlarni birlashtirgan temperament sathi: ular odamning nerv sistemasi individual xususiyatlari bilan bog'liq. Unga shaxsning ehtiyoj va instinkt xususiyatlari va jinsiy; yoshi, milliy hamda boshqa sifatlari kiradi.

2. Psixik jarayonlar xususiyatlari sathi. Bu sath sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotira, tafakkur, xissiyot, irodaning individual xususiyatini o'z ichiga oladi. Aqliy harakatlar usullari deb ataluvchi fikrlash mantiqiy operatsiyalari (assotsiatsiya, qiyoslash, abstraktsiyalash, induksiya, deduktsiya va boshqalar) o'qitish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Shaxs tajribasi sathi. Bu sath bilim, malaka, ko'nikma, odat kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

4. Shaxsning yo'nalganlik sathi. Bu shaxsning shunday sifatini, unda insonning atrof-muhitga munosabati aks ettiriladi, mazmuni bo'yicha ijtimoiy sifatlarini birlashtiradi. Shaxsning xulqini yo'naltiruvchi va boshqaruvchi psixologik asosiy uning qiziqishlari, qarashlari, ishonchi, ijtimoiy ko'rsatmalar, qadriyatlar, odo-axloq printsiplari va dunyoqarashi hisoblanadi. Yo'nalganlik (ehtiyotlar va Menkontseptsiyasi bilan birga) shaxsni o'zini boshqarish mexanizmining asosini tashkil etadi. SHaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik qarashlari va xususiyatlari kerakli bilim, ko'nikma va malakalar to'plami bilan birgalikda estetik va ma'naviy sifatlari doirasini tashkil etadi. Aytib o'tilgan bir-biri bilan bog'liq qatlamlar sifatida, uning

markazida biologik tashkil topgan sifatlari joylashib qobig'ini "yo'nalganlik" - insonning ijtimoiy mohiyati tashkil etadigan ko'rinishda tasavvur qilish mumkin.

Biroq shaxs tuzilishida bir qator sifatlarda hamma darajalarda ham bir xil namoyon bo'lmaydi. Bu sifatlarda, aniqrog'i sifatlarda guruhi: ehtiyoji, xarakteri, qobiliyati va shaxsning "Men" kontseptsiyasi darajalari bilan birga shaxsning ma'lum sifatlari hamma guruhlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va murakkab yaxlit tizimni tashkil etib bir-birini o'rnini to'ldiradi.

Hamma jonli organizmlar yashash, oziqlanish birinchi ehtiyojini, avlodni davom ettirish, xavfsizlik masalalarini hal etishga intiladilar. Inson bu masalalarni hal etishda juda katta ishlarni bajargan, murakkab tsivilizatsiyani yaratgan fan, texnika, madaniyat, san'atning birlashuvidan iborat.

Insonni tsivilizatsiya hozirgi davr darajasiga olib kelgan psixologik individual jarayon – bu fikrlashdir. Fikrlash – insonning atrof-dunyodagi ob'ektlar va hodisalarni hamda ularning bog'liqliklarini o'rganish, hayotiy muhim vazifalarni hal etish, noma'lumni izlash, kelajakni ko'ra bilish jarayonidan iboratdir. Maktabgacha sinf bolalarida bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning muhim omillaridan biri – ularda fikrlash jarayonini rivojlantirishdir. Fikrlash – bu ongning ishlash jarayoni, miyaning undagi bo'la va olinayotgan axborotlarni qayta ishlab chiqishi va natija olishidir. Fikrlashni amalga oshirish usullarini aqliy harakatlar usullari (AHU) deb ataydilar. Ularni quyidagi tarzda turlarga ajratish mumkin:

1. Fikrlash asosiy vositalari xususiyatlari bo'yicha: predmetli-amaliy, ko'rgazmali-obrazli, abstrakt, intuitiv.

2. Jarayonning mantiqiy tuzilishi bo'yicha: qiyoslash, analiz, abstraktlashtirish, umumlashtirish, sintez, turlarga ajratish, induksiya, deduksiya, inversiya, refleksiya, gipoteza, tajriba va boshqalar.

3. Natijalar shakli bo'yicha: yangi obrazni yaratish, tushunchani belgilash, mulohaza, xulosa, teorema, qonuniyat, qonun, nazariya.

4. Fikrlash mantiqi turi bo'yicha: mulohazali – empirik (klassik-mantiqiy) va oqilona-nazariy (dialektik-mantiqiy).

“Aqliy harakatlar” terminidan tashqari pedagogik texnologiyalarda unga yaqin bo'lgan “o'quv ishlari usullari” terminidan ham foydalaniladi, u bilan umumta'lim malaka va ko'nikmalari ifodalanadi.

Ishlashning muhim umumta'lim usullari (umumta'lim malaka va ko'nikmalari) quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quv faoliyatini rejalashtirish malaka va ko'nikmasi: o'quv vazifasini anglab etish; maqsadni belgilash; ularga erishish ratsional va qulay yo'llarini tanlash; faoliyat bosqichlarini ketma-ketligi va davomiyligini aniqlash; faoliyat modeli yoki algoritmini qurish: darsda va uyda mustaqil ishlashni rejalashtirish; kun tartibi, hafta, oylik ishlarni rejalashtirish.

2. O'z o'quv faoliyatini tashkil etish malakasi va ko'nikmasi. Sinfda ish joyini tashkil etish – o'quv vositalarining mavjudligi va holati, ularni to'g'ri joylashtirish, qulay gigienik sharoitlar yaratish; ish tartibini tashkil etish; mustaqil uy ishini tashkil etish; aqliy harakatlar tartibi va usullarini belgilash.

3. Axborotlarni qabul qilish, axborotlar turli manbalari bilan ishlash malaka va ko'nikmalari: o'qish, kitob bilan ishlash, konspekt tuzish; bibliografik izlash, spravochniklar lug'atlar bilan ishlash; nutqli tinglash, eshitganlarini yozib olish; axborotlarni diqqat bilan qabul qilish, diqqatini boshqarish, kuzatish, eslab qolish, kompyuter bilan ishlashni bilish.

4. Fikrlash faoliyati malakasi va ko'nikmasi: o'quv materiallarini tushunib olish, asosiysini ajratib olish; analiz va sintez; abstraktlashtirish va konkretlashtirish, induksiya – deduktsiya, hikoya qilishni, javob, nutqni tuzish, asoslab berish; xulosalar – yakunlarni ifoda etish; insho yozish; muammo, masalani hal etish.

5. O'z harakatlari natijalarini baholash va tushunish malakasi va ko'nikmasi; o'quv faoliyatini o'zi nazorat qilishi va o'zaro nazorat qilish; bayon etilganni aniqligini, echimning to'g'riligini taholash; hodisalar turli tomonlariga baho

berish; iqtisodiy, ekologik, estetik, nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari to'g'riligini va mustahkamlashini tekshirish malakasi, refleksiv analiz.

Shaxsning rivojlanish maktab bosqichida aqliy harakat usullari darajasi bolaning "o'qimishlilik" deb ataluvchi ko'rsatkichini belgilaydi, ya'ni uning o'quv materiallarini o'zlashtirishga qobiliyatini, bilimlar individual tizimini qo'llay olishini, nazariy va amaliy masalalarni echa olish qobiliyatini belgilaydi.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Bola shaxsida mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funktsiyalarni ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tizimi - vositasida amalga oshiriladi.

Ta'limda bola shaxsiga faliyatli yondashuv bu ta'lim tizimi kotseptsiyasini tashkil etib, bunda shaxs "sub'ekti" kategoriyasi erkinlikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglaniladi, o'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari-maqсад, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar uquvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgach, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi.

Xulosa qiliyu aytganda, agar bola o'quv faoliyatini mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, tarbiyachi qo'ygan vazifani tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etilgan barcha hatti-harakatlar majburiyat ostida bo'lib, uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Bolaning ruhiy hususiyatlari o'rganish, o'zlashtirilayotgan bilimlarning bolaga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarurligi, aks holda ular shubxasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning

muhim shakllari (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik)ni talab etadi. Tarbiyachi o'z darsida shunday shart-sharoitlar yaratish lozimki, natijada bola uchun dastlab neytral bo'lgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida bola tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlaydi, izlanadi va tarbiyachi o'quv maqsadlariga erisha boradi.

2-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

2.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish shakllari, metodlari va vositalari.

Pedagogik texnologiya ta'lim–tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning bilish faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asoson quyidagilardan tarkib topadi:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni avloddan-avlodga uzatish;
- mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish;
- turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, xalqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish;
- bolaning tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini gigienik talablarni hisobga olish;
- ta'lim menejmenti, marketingi talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodini qo'llash o'qitishi jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ana shunday samaradorlikni ta'minlovchi zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan biri hamkorlikda o'qitishdir.

Hamkorlikda o'qitish asosiy maqsadi - har bir bolani qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish shaxs sifatida onglilik mustaqillikni tarbiyalash, har bir bolada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamla, ta'lim olshida mas'uliyat xissini shakllantirishdan iboratdir.

Darhaqiqat endilikda mavjud an'anaviy ta'lim jarayoni bilan qurollangan ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga ojizlik qilmoqda.

Taniqli olim M. N. Maxmutovning fikriga ko'ra, o'quv jarayonining tashkil etishning an'anaviy sxemasi bolalarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, uning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi.

Natijada shaxsning yetukligi, barkamolligi ta'minlamaydi, uning yangi jamiyatga moslashuvi qiyinlashadi. Hamkorlikda o'qitish guruhda raqobat muhitini paydo qiladi, bilish quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni his o'ziga va o'z bilimiga ishonch paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish imkonini beradi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. G'oya asosida esa o'qituvchining bolalar bilan o'zaro harakati yotadi, ya'ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o'quvchi o'z shaxsini o'zi namoyon etishini ta'minlash; har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'lini tanlash; o'quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar.

Bunda o'qituvchi har bir o'quvchi qalbiga kirib borish uchun o'zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo'l topadi. Darsdagi o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avvalo a'lochi o'quvchi, keyin boshqa o'quvchilar ham o'qituvchi topshirig'iga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o'quvchilarni orqalaridan ergashtiradilar. Bunday «izohli boshqaruv» o'quvchi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlanishi kerak.

Bularning hammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir so'z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardir. Pedagogik texnologiya, o'quvchilar qay tarzda, qanday usullar bilan o'qitilsa, natija samarali bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'zining muayyan tizimiga ega bo'lib, bunda komponentlarning ketma-ketliligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi.

Hozirga vaqtda ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash

o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka olib keladi. An'anaviy o'qitish jarayonida asosan tarbiyachi avtoritarlik bilan darsni olib borsa (sub'ekt-ob'ekt), noan'anaviy o'qitish jarayonida esa bola shaxsiga erkinlik berish, munosabatlarni demokratlashtirish (sub'ekt-sub'ekt) asosda dars jarayonlari tashkil etiladi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli bolalar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, tarbiyachi bilan bolaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat tarbiyachining bolaga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi.

Bolalarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; tarbiyachi bilan bola o'rtasidagi munosabatda esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Tarbiyachi ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim yordamida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Eng muhimi, interaktiv metodlarni qo'llash orqali tarbiyachi bolalarning aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, oshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Haqiqatan ham, an'anaviy ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy ta'lim jarayoni bilan taqqoslaganda ular o'rtasidagi farq aniq ko'zga tashlanadi. 1-jadval.

Ta'lim jaaryonining o'ziga xos bosqichlari, xususiyatlari	An'anaviy ta'lim jarayoni	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy ta'lim jarayoni
1	2	3
Pedagogik munosabatlar tipi.	Sub'ekt-ob'ekt	Sub'ekt-ob'ekt
Pedagogik munosabatlar tipi.	Avtoritor	Insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'zaro hamkorlik.
Darsning maqsadi	Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quv materialini tushunish.	SHaxsning qizig'ishi, motivini rivojlantirish, aqliy, ma'naviy-ahloqiy, ruhiy va jismoniy barkamolligini ta'minlash.
Ta'limning harakatlantiruvchi kuchi	Tahdid, buyruq, ta'qiqlash, jazolash, baho, boshqalarga taqqoslab, shaxsni kamsitish yoki rag'batlantirish.	Bilish quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni xis qilish, o'ziga va o'z bilimiga ishonchning paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zaro hamjixatlikka asoslangan qulay ijtimoiy psixologik muhit
Bolaning vazifasi	Axborotni qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish va tegishli bahoni kutish.	O'quv topshiriqlari va muammoni hal etishga oid individual, guruhli izlanishlarda ishtirok etish, doimo o'z bilimini boyitish va mustahkamlash maqsadida muntazam va sidqidildan mehnat qilish, o'zini, iqtidorini namoyon etish.
Ta'limning yakuniy natijasi.	DTS va dastur talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish.	Bolalarning aqliy, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy, ruhiy barkamolligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o'zlashtirgan bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish, o'z ustida mustaqil va muntazam ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

An'anaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan darslarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llari ustida qayg'urish zarur.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi:

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.
2. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. Bolalarga tanlash huquqini berish.
3. Bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zaro hamjixatlikka, hamkorlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.
4. Bolalarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.

Maktabgacha ta'limda interaktiv usullarni ta'lim jarayoniga qo'llashning didaktik jihatlarini mazmunan yoritishga asoslanadi. Shunga muvofiq o'qitish metodikasida o'qitishning asosiy kontsepsiyalari ishlab chiqilib interaktiv usullarni qo'llashga mazkur masalalar negiziga asoslanadi.

Mazkur kontsepsiyalardan asosiylari quyidagilardan shyurat;

a) o'qitish uning shakllarini shakllanishi tarbiyachining faol faoliyati - o'quv faoliyati hisoblanib, bunda tarbiyachi bu faoliyatning tashkilotchisi rovida ishtirok etadi.

b) o'quv faoliyatining predmeti va natijasi faoliyatining sub'ekti bola hisoblanadi, u faoliyat hisobiga qayta tashkil bo'ladi, predmet sifatida va o'qitish yakunida o'zgartirilgan urinishda namoyon bo'ladi (o'quv faoliyatining natijasi sifatida).

v) muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi bolaning fikrlash mahoratini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish ilmiy va amaliy muammolarda erkin va mustaqil yo'l topa olishni tushunish hisoblanadi, shu bilan birga bilimlarning fikrlash materiali va vositasi bo'lib xizmat qiladi.

g) o'quv faoliyatining birligi o'quv masalasi hisoblanadi. Hayotda yuzaga keladigan boshqa hamma masalalardan uning predmetini o'zgartirishga emas balki amaldagi sub'ektning o'zini o'zgartirishga birinchi navbatda uning fikrlash harakatlar usullarini egallab olishga qaratilganligi bilan farq kiluvchi o'quv taktikasi hisoblanadi.

d) o'quv faoliyati jarayoni bolaning tashqi predmetni mazmunida o'z harakatlarini ichki aqliy ko'rinishga (interiorizatsiya) o'tkazilishi ko'rinishidagi o'quv masalalarini hal etish bo'yicha harakatlaridir, ya'ni ularni o'zining shaxsiy bilimlar, mahorati va ko'nikmalarini hosil qilib olishidir.

e) bilish mahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirish - bu akliy harakatlar hisoblanadi, ular individ tomonidan shakl obraz ko'rinishida tashqi vositalarga tayanilgan holda (predmetlar yordamida yo'l topish yoki so'z bilan yordamlashish) bajariladi va o'quv faoliyati natijasida o'zlashtirilgan, qayta tashkil etilgan «sobiq» tashqi predmetli harakatlardan iborat.

Insonlar psixologiyasining birgalikdagi munosabat va xarakatiga asoslangan o'qitish interaktiv o'qitish usuli deyiladi. Individ sifatida alohida o'qiydigan emas, aksincha guruh bilan birga faoliyat yurituvchi, savollarni o'zaro kelishib bahslashib muhokama qiluvchi bir-birini qo'zgatib va faollashtirib boradigan bola va tarbiyachi faoliyati markaziy o'rinni egallaydi.

Interaktiv usulni qo'llaganda hammasidan ko'ra bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyatini intellektual faolligiga kuchli ta'sir etadi. Bu insonlar uyushgan holda muammoni echimin izlaganlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari shunday psixologik omillar ta'sir qiladigan, atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o'zining shunga o'xshash, yaqin yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikr bildirishga da'vat etadi.

Bunday mashg'ulotlar vaqtida tarbiyachidan ancha ko'p ijodkorlik va faollik talab etiladi. Oldindan ma'lum yoki ancha ko'p ijodkorlik va faollik talab etuvchi kitobdan o'qiganlarini hikoya qilish shaklidagi dare passiv darajada o'tadi. Interaktiv usuli nafaqat ta'limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija;

keltiradi, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda tarbiyachi muhokamaga ta'sir qilganda nafaqat fikr bildiradi, balki muammoga o'zining shaxsiy munosabatini, axloqiy mavqei va dunyoqarashini bildiradi. Bolalar bahsida tarbiyachining ishtiroki turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o'zini fikrini o'tkazmasligi kerak. Yaxshisi bahsni boshqarishda yaxshilab hisoblab chiqilgan usul, sermahsul fikrlashni, echimini topish, ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi yo'lni muammoli savol qo'yish orqali boshqarish lozim. Tarbiyachi o'z nuqtai nazaridan chiqarishda fikr bildiradi, faqat bolalar fikridan xulosa chiqarish bilan isbotlash va xato fikrlarni rad etish kerak. Bu usul bilan bahsni nafaqat mazmuni intellektual - bilish, iazariy savollarni yo'llash mumkin, shuningdek hamkorlikda sermahsul faoliyatlarini tuzim, bolalar shaxsiga o'z ta'siri bilan o'quv faoliyatini o'quv tarbiya jarayoniga aylantirishi mumkin.

Xulosa sifatida shaxsiga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari bola bilim faoliyatini tashkil etishi uchun va metodlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash joiz. Bu usullar: muammoli izlanish, tadqiqot, dialogik, munosabat metodlari (dialog, evrestik suhbat, munozara, guruhli ish turlari va boshqalar). Ta'limni shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko'ra farq qiladi:

Mashg'ulotning asosiy maqsadi - tafakkur jarayonini tashkil etishdir, bilim, ko'nikma, malaklar - bola faoliyatini mahsuli sifatida vujudga keladi. Bilishga bo'lgan qiziqish jarayonining quvvati bilimlar quvvatdan yuqori turib, u shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish unsuri tarzida namoyon bo'ladi, ijodiy izlanishning natijasi kabi mazkur jarayonning o'zi ham o'ta muhim bo'lib, aynan u bola va tarbiyachining ijodkorlik quvonchiga, yangilik yaratishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faoltyatni tashkil etishga undaydi. Bolani sub'ektivligini amalga oshiradi: bilim usulini mustaqil belgilash, muammo echimini topishda o'z dunyoqarashi, tafakkur tarzidan kelib chiqish, xato qilish huquqi ta'minlanadi. Bunday mashg'ulotlarning qoidasi: o'zing bilganicha bajar, o'z layoqating,

qiziqishlaring va shaxsiy tajribangga asoslan, o'z xatoingni o'zing tuzat kabi ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi.

2.2. “Bolajon” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

“Bolajon” dasturida katta va tayyorlov guruhi bolalarining o‘ziga xos xususiyatlariga doir ma’lumotlar keltirilgan. Tarbiyachi mashg‘ulotlarni tashkil

etishda va ta'lim metodlarini tanlashda ana shu ma'lumotlarga tayanishi zarur. Quyida dasturdagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

5-6 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari.

Bu davrda bolaning bo'yi bu davrda 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali etarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi.

Olti yoshga etganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak.

Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim.

Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak.

Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruhda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yillik taqsimoti.

Katta guruh (5-6 yosh)

№	Mashg'ulot nomi	O'quv yili davomida				
		haftada	bir	1-	2-	Jami

			oyda	yarim yillik	yarim yillik	
1	Atrof olam bilan tanishtirish	2	8	32	40	72
2	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
3	Nutq o'stirish	2	8	32	40	72
4	Badiiy adabiyot bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
5	Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish	1	4	16	20	36
6	Rasm	2	8	32	40	72
7	Applikatsiya	0,5	2	8	10	18
8	Qurish-yasash(qo'l mehnati*)	0,5	2	8	10	18
9	Loy ishi	1	4	16	20	36
	Jismoniy tarbiya	2	8	32	40	72
10	Musiqqa	2	8	32	40	72
	Jami	14	56	224	280	504

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI

6-7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola hayotining ettinchi yilida undagi harakatlar ko'lamini kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga etadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. O'qituvchining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. SHuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan o'qituvilar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kirishilishi kerak.

Tayyorlov guruh (6-7 yosh)

№	Mashg'ulot nomi	O'quv yili davomida				Jami
		haftada	bir oyda	1-yarim yillik	2-yarim yillik	
1	Atrof olam bilan tanishtirish	2	8	32	40	72
2	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
3	Nutq o'stirish	1	4	16	20	36
4	Savodga tayyorlash	1	4	16	20	36
5	Badiiy adabiyot bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
6	Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish	2	8	32	40	72
7	Rasm	2	8	32	40	72
8	Applikatsiya	0,5	2	8	10	18
9	Qurish-yasash (qo'l mehnati*)	0,5	2	8	10	18
	Loy ishi	1	4	16	20	36
10	Jismoniy tarbiya	2	8	32	40	72
11	Musiq	2	8	32	40	72
	Jami	15	60	240	300	540

2018 yilda qabul qilingan “Ilk qadam”

Davlat o‘quv dasturida 5 dan 6 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy soni

T/r	Mashg‘ulotlar nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o‘quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	sog‘lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish eksperimentlar – ilmfan	2	8	72	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
4.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktoralar	1	3
5.	Ikkinchi tilni o‘rganish	2	4	36	o‘yinlar	o‘yinlar	o‘yinlar
6.	Elementar matematika mantiqiy fikrlash	1	4	36	mantiqiy o‘yinlar	1	3
7.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
8.	Applikatsiya	1	2	36	1	4	12
9.	Konstruksiyalar tuzish	navbatma-navbat	2				
10.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
11.	Jismoniy tarbiya (undan bittasi toza havoda)	2	8	72	sport o‘yinlari	1	3
12.	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		17	64	576	6	28	84

6 dan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy soni

T/r	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	sog'lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish	2	8	72	1	4	12
	eksperimentlar – ilmfan						
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
4.	Savodxonlikka o'rgatish	1	4	36	o'yinlar	1	3
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktorinalar	1	3
7.	Ikkinchi tilni o'rganish	2	4	36	1	4	12
8.	Elementar matematika	2	8	72	mantiqiy o'yinlar	1	3
	mantiqiy fikrlash						
9.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
10.	Applikatsiya	1	2	36	1	4	12
11.	Konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati	navbat - navbat					
12.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
13.	Jismoniy tarbiya (undan bittasi toza havoda)	2	8	72	sport o'yinlari	1	3
14.	Musiqqa	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		18	68	612	7	33	99

2.3. Katta va tayyorlov guruhlari mashg'ulotlari uchun tanlangan metodlar samaradorligini aniqlash.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachining rahbarligi, etakchi rol o'ynashini taqozo etadi. Tarbiyachi ta'lim jarayonida bolalarga to'g'ridan-to'g'ri va rejali ravishda ta'sir ko'rsatadi: dastur materiallarini ularga ma'lum qiladi, ish ko'rish usullarini o'rgatadi, bu usullarni mustahkamlaydi va boyitadi. Ta'lim jarayonida tarbiyachining roli ta'lim vazifalariga qarab xilma-xil bo'ladi: biri - ma'lumotlarni, usullarni o'rgatish bo'lsa, ikkinchisi - ularni mustahkamlash va uchinchisi - aniqlashdan iborat.

Tarbiyachining faoliyatini belgilaydigan shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: tarbiyachi avvalo bolalarga qanday bilim berish, ularda qanday malakalar hosil qilish mumkinligini va bu yangi bilimlar o'tilgan material bilan qanday bog'langanligini aniqlab olishi kerak.

So'ngra tarbiyachi yangi materialni yaxshi va to'liq o'rgatishga imkon beradigan mashg'ulotni tashkil etish shakli va metodini tanlaydi.

Mashg'ulot uchun tanlangan material bolalarning yoshiga va imkoniyatiga mos bo'lishi kerak. "Bolajon" dasturida faqat umumiy tushunchalar beriladi, tarbiyachi mashg'ulot mazmuni, kuzatish mavzusi va tushuntirish lozim bo'lgan narsalarni o'zi ishlab chiqishi va mashg'ulotni bolalar belgilangan materiallarni ongli ravishda o'zlashtirib oladigan qilib o'tkazishi kerak bo'ladi. Agar tarbiyachining oldida bolalarga ma'lum qilingan (tushuntirilgan) materialni mustahkamlash vazifasi turgan bo'lsa, uning etakchilik roli boshqacha bo'ladi.

Mashq qilish va takrorlash - ta'lim usullaridir. Bu usullar bolalarning ilgari hosil qilgan bilim, malaka, ko'nikma va tasavvurlarini esga tushirishlariga yordam beradi. Bolalar tasavvurlarini faollashtirishda ikkita tanish bo'lgan narsani bir-biri bilan taqqoslab, idrok qilingan bilim va tasavvurlarini ijodiy ravishda esga tushiradilar. Idrok qilingan narsa taqqoslash, biror belgisini ajratib ko'rsatish yo'li bilan mustahkamlanadi. Tarbiyachi bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni qay darajada o'zlashtirganliklarini ularning turli faoliyatlaridan (hikoya, she'r o'qish, rasm solish, o'yin, mehnat yumushlaridan) aniqlab oladi.

Tekshirish - buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo'lib, uning natijalaridan keyinchalik ma'lum bir mazmunli faoliyatda foydalaniladi. Tekshirish jarayonida bolalar katta-kichiklikni, shaklni, fazoviy munosabatlarni, rangni, nutq tovushlari bilan musiqiy tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va farqlashga o'rganadilar. Mashg'ulotlarda bolalarning hissiy bilish tajribasini, e'gallab olishlari muhim rol o'ynaydi. Holbuki shu mashg'ulotlarda bolalarning sezgi, idrok va tasavvurlarini tarbiyalashga jonli rahbarlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Bolalar biror buyumni nima uchun sinchiklab qarash, ba'zi tovushlarni yaxshilab eshitish kerakligini aniq tushunganlaridagina, ularda sinchiklab qarash, narsa va hodisalarni idrok qilish malakasi hosil bo'ladi. SHuning uchun tarbiyachi bolalarni narsa va hodisalarni idrok qilishga o'rgatib ularga qiladigan ishlarining ma'nosini aniq tushuntirib berishi lozim. SHundagina ular ancha tushungan holda idrok qiladilar va u biror maqsadga qaratilgan bo'ladi: axir, daraxt shoxlari (novdalarini) yaxshilab ko'zdan kechirilmasa, uning rasmini chizish ancha qiyin bo'ladi. Boshqa faoliyat turlariga, masalan, mehnatga tayyorgarlik ko'rishda tegishli tekshirish usullari tanlanadi.

Masalan, qog'oz va gazlamaning xossalarini aniqlash uchun tarbiyachi bolalarga qog'oz va gazlamani g'ijimlanganda nima bo'lishini eshitib ko'rishni, qog'oz va bir parcha gazlamani yirtib ko'rishni, qog'oz va gazlamadan qilingan qo'g'irchoq ko'ylagini suvda yuvishni taklif etadi. To'plangan tajribalarni bolalar boshqa buyum va hodisalarga ko'chiradilar, undan kundalik hayotlarida foydalanadilar: «Kel, qumga suv quyamiz, u nam bo'ladi, biz undan tunnel quramiz», «Bu chelakni ko'tarma, unda qum bor, u juda og'ir».

Buyumlarning xususiyatlarini, nomini va ta'rifini aniqlash, ularni ma'lum bir xossalariga ko'ra taqqoslash uchun didaktik o'yin va qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. Ular bolalar bilan olib boriladigan xilma-xil mashg'ulotlar, mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida yaxshigina qo'shimcha material hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Tarbiyachi maktabgacha ta'lim muassasasida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi. Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati uning kasb mahoratidir. Eng muhimi - bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, ahloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda

bo'lish - fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi. Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar — nonushtaga kech qolyapmiz», «O'yinchoqni tezroq yig'ishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas. Ta'lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar etarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab

topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limning yakunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo.

Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning usutnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni aqozo etadi.

Noan'anaviy ta'lim jaaryonida tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar munosabatining o'ziga xos jihati tarbiyalanuvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki tarbiyalanuvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- tarbiyalanuvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;

- muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Noan'anaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali tarbiyalanuvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- tarbiyalanuvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatleri, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;
- tarbiyalanuvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
- tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

Tajriba ishlarida Chust tumanidagi maktabgacha ta'lim muasasalarida olib borilayotgan mashg'ulotlar jarayoni kuzatildi. Katta va tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar tahlil etildi.

Mashg'ulot tahlili quyidagi jadvalga asoslanib umumlashtiriladi.

№	Mashg'ulotni kuzatish uchun mo'ljallangan mezonlar	Maksimal - 5 ball				
		1	2	3	4	5
1	Mashg'ulotning dasturgamosligi					
2	Tarbiyalanuvchilarning mavzularni o'zlashtirish darajasi					
3	Ta'lim metodlari samaradorligi					
4	O'quv topshiriqlarini talabga muvofiqligi					

5	Zamonaviy o'qitish texnologiyasining qo'llanishi					
6	Bolalarning faollik darajasi					
7	Guruxli faoliyatni tashkil etilishi					
8	Bolalarning ta'lim metodi asosida ishlash malakasiga egaligi					
9	Mashg'ulotda ko'rgazmalilik					
10	Tarbiyachi va bolalar hamkorligi					
11	Belgilangan o'quv maqsadiga erishishi					

Kuzatilgan mashg'ulotlarda tanlangan ta'lim metodlarining samaradorlik darajasini aniqlashga harakat qildik. Tarbiyachilarga metodlarni tanlash mezonlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etildi.

Tarbiyalanuvchilarning aqliy harakatlarini rivojlanish darajasini aniqlash mezonlari 1-bosqich natijalari.

1-jadval.

№	Mezonlar	Natijalar % hisobiga		
		yuqori	O'rtacha	Past
1	Bolaning o'quv faoliyatiga munosabati	18	27	55
2	O'quv materialini o'zlashtirish darajasi.	9	45,5	45,5
3	Analiz qila olishi	18	45,5	36,5
4	Ehtiyoj va qiziqishlarning maqjudligi	27	18	55
5	Sinez qila olishi.	-	36,3	63,7
6	Tasniflay olishi	-	55	45
7	Muammoni echa olishi	36,5	36,5	27
8	O'z-o'zini nazorat qilish darajasi.	-	55	45

9	Umumlashtirishi	18	36,3	45,7
10	Taqqoslay olishi	9	45,5	45,5
	Umumiy:	14%	40%	46%

Tajriba uchun tanlab olingan guruhda bolarning ta'lim metodlari asosida avliy harakat qilishlarining o'ziga xosligi individual tarzda o'rganib chiqildi

No	Aqliy harakatlar tavsifi	Sobir	Islom	Dilbar	Bunyod	Shahno	Sherzo	Muslim	Nafisa	Ma`ruf	A`zam	Akmal
1	O'qishni xohlamaydi	+	+	-	+	-	+	+	+	+	+	+
2	Analiz qila oladi	-	+	+	+	-	+	+	-	+	+	+
3	Sintez qila oladi	+	-	-	+	-	+	+	+	+	-	+
4	Muammoni hal qiladi	-	-	+	-	+	-	+	-	+	+	-
5	Qiziqishlari mavjud emas	+	+	-	+	+	+	-	+	+	+	-
6	Aql-idroki zaif	-	+	-	+	+	-	-	+	-	+	-
7	Umumlashtira oladi	+	-	+	+	-	+	+	+	+	+	+
8	Mavhumlashtiradi	-	+	+	+	-		+	+	+	+	+
9	Taqqoslaydi	+	-	-	+	-	+	+	+	+	+	+
10	Farqlaydi	-	+	-	+	-	-	+	-	+	+	-
11	Tasniflay oladi	-	-	-	+	-	-	-	-	+	-	-
12	Kreativlik darajasi	+	+	-	+	-	+	+	+	+	-	-
13	Qo'llay oladi	-	+	+	+	-	+	-	+	+	+	-
14	Izohlaydi	+	-	-	+	+	+	+	+	+	-	+
15	Ta'riflaydi	+	+	+	+	-	+	-	+	-	+	+
16	Takrorlay olishi	-	-	-	-	+	-	+	-	-	-	-
17	Harakat tezligi	-	+	+	+	-	+	-	+	+	+	+
18	YOdda saqlashi	+	-	-	+	-	+	-	+	+	+	+
19	Mustaqil fikrlay olishi	-	+	-	+	+	+	-	+	-	+	+

Katta va tayyorlov guruhlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun zamonaviy metodlarni tatbiq etish orqali bolalarning o'zlashtirish darajasini oshirish mumkinligi tajribalarda o'z isbotini topdi.

**Tarbiyalanuvchilarning aqliy harakat usullaridan foydalanish
samaradorligining dinamik o'sishi. 2-jadval.**

№	Mezonlar	Natijalar % hisobiga		
		yuqori	O'rtacha	Past
1	Bolaning o'quv faoliyatiga munosabati	36	28	36
2	O'quv materialini o'zlashtirish darajasi.	27	55	18
3	Analiz qila olishi	36	45	19
4	Ehtiyoj va qiziqishlarning maqjudligi	44	28	28
5	Sinez qila olishi.	18	37	45
6	Tasniflay olishi	18	37	45
7	Muammoni echa olishi	45,5	45,5	9
8	O'z-o'zini nazorat qilish darajasi.	18	45	37
9	Umumlashtirishi	36	45	19
10	Taqqoslay olishi	27	55	18
		30%	42%	28%

Tajriba ishlarida tarbiyachilar bolalarga ko'plab muammoli vayiatlar, muammoli savollar, topshiriqlar bilan faoliyatga undagani ta'limni samaradorligini ta'minladi.

Har qanday mashg'ulotning samarasi, uning natijasi, ya'ni bolalarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi, lekin bu natija ko'p jihatdan mashg'ulot o'tuvchi shaxs - tarbiyachichining tayyorgarligiga bog'liqdir.

Xulosa va tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim muasasasi tarbiyachisi bolalarda o'qishga nisbatan qiziqishini rivojlantirishda quyidagi asosiy qoidalariga tayanishi lozim:

1. Bolalardagi bilishga nisbatan qiziqishini hamda aqliy mehnat jarayoniga nisbatan muhabbatni rivojlantirish uchun o'quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki , unda bola faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi "kashf etishi" va muammoli harakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.

2. Boshqa mehnat singari aqliy mehnat ham ko'p qirrali bo'lgan taqdiridagina qiziqarli bo'lishi mumkin. Bir turdagi ma'lumotlar va bir hil o'qitish bolaning juda tez zerikishiga sabab bo'ladi.

3. O'rganilayotgan fanga nisbatan qiziqishini namoyon etishi uchun ayni shu fan yoki bo'lim bolaning o'zi uchun qanchalar kerakligi, ahamiyati, foydaliligini bilishi juda muhim.

4. Yangi material qanchalar bola tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq bo'lsa , u bola uchun shunchalar qiziqarli bo'ladi.

5. Haddan ziyod oson va haddan ziyod qiyin material bolada qiziqish uyg'otmaydi. Berilayotgan bilimlar qiyin, lekin bolaning kuchi yetadigan darajada bo'lishi lozim.

Tajribali bolalar o'rganilayotgan mavzu yoki bo'limning ahamiyatini ko'rsatish, bolaning o'quv faoliligini oshirish uchun qiziqarli misollar ,aqliy o'yinlardan keng foydalaniladi. Lekin ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo'lavermaydi. Shuning uchun iroda qatiyatlilik , mehnatsevarlik kabi hislatlarni komol toptirilishi nihoyatda zarurdir.Ana shu hislatlar bolaning kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashiga va mustaqil ta'lim olishiga asos bo'lishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarga asoslanib,tubandagi hulosalarga kelish mumkin:

1. Maktabgacha ta'limi shaxsni rivojlantiruvchi ta'limga aylanmog'I lozim.
2. MTM tarbiyachilari o'z faoliyatlarini demokratik uslubga yo'naltirishlari zarur.
3. Tarbiyachining bolalarga bo'lgan munosabati, ularning ijodiyotiga , tafakkuriga bilish faoligiga , mustaqilligiga keng yo'l ochishi zarur.

4. Bola bajargan ish natijasi yaxshi bo'lmasa ham, uni kechagi bajargan ishiga nisbatan siljish borligi uchun rag'batlantirish, o'z navbatida kerakli natijaga qanday erishish mumkinligini ko'rsatuvchi aniq ko'rsatmalar beriishi maqsadga muvofiqdir.

5. Bolalar o'z ish natijalari va tengdoshlarining ish natijalarini to'g'ri baholashga o'rgatib borish ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

6. Bola o'qitish obyekti bo'lib qolmasdan, balki o'z faoliyatini subektiga aylanishi lozim.

Demak, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni asosini tashkil etadi. Biz ushbu kichik ilmiy-ommabop risolamizda bola shaxsini shakllanishida maktab ta'limini ahamiyati, o'quv jarayonini boshqarish va bu boradagi tarbiyachi va bola o'rtasidagi munosabat psixologiyasini yoritib berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. "Ma'rifat" gazetasi 1997 y. 1 oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ma’rifat” gazetasi 1997 y. 1 oktyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, № -soni.
4. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 maydagi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 y. <https://nrm.uz>.
8. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh-son [buyrug‘iga](#) ILOVA. <https://nrm.uz>.
9. “Bolajon” takomillashtirilgan tayanch dasturi. Toshkent 2016 yil.
10. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2018 yil.
11. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. Namangan. NamMPI. 2004 y. 95- bet.
12. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (trenirlar uchun qo‘llanma). Osiyo taraqqiyot banki. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish loyihasi OTB krediti O‘ZB-1737- T.: O‘MKXTRI. 2002 - 183- bet.

13. Kamoldinov M, Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “Talqin” 2010. - 128- bet.
14. Farberman B. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. - T.: “Fan”. 2000. 146-b.
15. Golish L.V, Fayzullaeva D M. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish.- T.: TDIU, 2010 y. 149- bet.
16. Ziyomuxammedov, Tojiev M. Pedagogik texnologiya- Zamonaviy o’zbek milliy modeli. – T.: “ Lider Press”, 2009. 104 – bet.
17. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiya-ta’lim tarbiya sifat va samaradoriligini oshirish omili. // Xalq ta’limi jurnali. 2004., 4 son. 12 bet.
18. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya. Qarshi, 2000 y. 80 bet.
19. Muxammedov G’. Hamkorlik pedagogikasi va amaliyoti WWW, pedagog.uz., 2006.04.05.
20. Yoldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 132 b.
21. Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslari. – T.: “Fan”, 2006. – 260 b.
22. Xushmurodava I. Kasb-hunar kollejlari bolalarida ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan.nomz.avtorefer./ TDPU. – T.: 2008 y.
23. Egamberliyeva N., Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: “Fan va texnologiya”, 2013, -48 b.
24. Qudratov O. G’aniev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. T.: Aloqachi, 2004 y 3- bet.
25. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan”, 2005 y. – 205-b.
26. Shamaribxodjaeva G.J. Kasb-hunar kolleji o’quvshilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish. Avtoreferat. T.: TDPU 2009 y.
27. Bola ma’naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar: Fozilov J., Sulstonov R., Sayidov H., T.: Sharq, 2000 y

28. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU – 2010 y. – 330 b.
29. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbek. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. – 304 b.
30. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
31. Xasanboyev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T., "Fan".2006.
32. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005.
33. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2009, 270 b.
34. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. Bolalarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDPU, 2006.
35. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.
36. Tolipov O'. Ta'lim: tarbiyachi va bola faoliyati. // Sog'lom avlod uchun jurnali. 2000y. № 7-8.
37. Musaeva M.E. Bolalarning qobiliyatini o'stirishga integrativ yondashuv. // Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. - T.: O'zPFITI. 2006. 318-322 betlar.
38. Ro'zieva D., Usmonboeva M va Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013 y.- 136 b.

III. INTERNET SAYTLARI:

1. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
2. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
3. [http: www.edu.uz](http://www.edu.uz).

4. [http://ru.wikipedia.org/wiki/Методы обучения](http://ru.wikipedia.org/wiki/Методы_обучения).
5. [http://innarusskova.ru/rubl/interaktivnoe obuchenie/1-1-0-6](http://innarusskova.ru/rubl/interaktivnoe_obuchenie/1-1-0-6)

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....

- 1.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqishlarning namoyon bo‘lishi..
- 1.2. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirishning o‘rni.....
- 1.3. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari.

II-BOB. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI....

- 2.1. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish shakllari, metodlari va vositalari.....
- 2.2. “Bolajon” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.....
- 2.3. Katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlari uchun tanlangan metodlar samaradorligini aniqlash.....

XULOSA VA TAVSIYALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....